NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№21 (783), 2024-yil 14-noyabr

facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ 11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni

## BAYRAM – E’TIROFLAR TANTANASI

**Respublikamizda 11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni “Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun” shiori ostida keng nishonlandi. “Farhod” madaniyat saroyida “Navoiy kon metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati, “Navoiyuran” davlat korxonasi, “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi rahbarlari, ishchi-xizmatchilari, muhandis texnik xodimlari hamda mehnat faxriylari ishtirokida bo‘lib o‘tgan tantanali yig‘ilish, bayram konsert dasturi ham ana shu sanaga bag‘ishlandi. Yig‘ilishda “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov tabrik ma’ruzasi bilan chiqish qildi.**

Quvondiq Sanaqulovich ta’kidlaganidek, keyingi sakkiz yilda muhtaram Yurtboshimizning qo‘llab-quvvatlashi tufayli kombinatni rivojlantirish yo‘lida ijobiy natijalarga erishildi. 2017-2023-yillarda umumiy qiymati 2,9 milliard dollar bo‘lgan 23 ta yirik investitsion loyiha ishga tushirildi. Buning natijasida 2016 yilga nisbatan oltin ishlab chiqarish 26 foizga, kumush esa 47 foizga oshdi. Kombinat jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar reytingida 4-o‘ringa ko‘tarildi. 2026-yilgacha mo‘ljallangan dastur muddatidan ikki yil avval - ishlab chiqarish hajmini 32 foizga oshirish bilan yakunlanadi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatini xalqaro moliya bozorining teng huquqli ishtirokchisiga aylantirish, korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ishlari boshlab yuborilgan. Xalqaro kredit reytingini olish, obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va boshqa yo‘nalishlarda ma’lum yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Joriy yilning iyul oyida kombinat “S&P Global Ratings” va “Fitch Ratings” reyting agentliklari tomonidan “Barqaror” prognozi bilan ilk marotaba xalqaro “BB-” kredit reytingi darajasida baholandi. Shu bilan birga, “S&P Global Ratings” agentligi kombinatning mustaqil kredit to‘lov qobiliyatini (SASP) “bb+” darajasida baholadi. Bu esa, o‘z navbatida, kombinatimiz uchun xalqaro kapital bozoriga chiqish, investitsion loyihalarni qimmatli qog‘ozlar chiqarish va joylashtirish orqali maqbul shartlarda moliyalashtirish imkonini yaratdi. Kombinat tarixida birinchi marta joriy yilning 11 oktabr kuni 1 milliard AQSh dollari miqdoridagi xalqaro korporativ obligatsiyalarni chiqarish va London fond birjasiga joylashtirishga erishildi. Mazkur fond birjasida korxonaning ilk xalqaro korporativ obligatsiyalarining savdolari boshlab berilgani muhim voqiyelik bo‘ldi.



Kombinatda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘nalishida konsalting kompaniyasi bilan birgalikda kadrlar siyosatini yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ishlab chiqildi, faoliyat samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari tizimi (KPI) hamda mehnatga haq to‘lash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning yangi tizimi joriy etildi.

Investitsion loyihalarni ro‘yobga chiqarish borasidagi ishlar joriy yilda ham davom ettirilmoqda. 2024 yilda Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 1 milliard AQSh dollari bo‘lgan 11 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 3-gidrometallurgiya zavodida 7-tegirmon blogi ishga tushirildi. “Kokpatas va Dovgistov oltin konlarida ma’dan qazib olish (III navbati)” investitsion loyihasi ishlab chiqarish hajmini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning umumiy qiymati 281,1 million AQSh dollarini tashkil etadi. Ayni paytda ushbu loyihani amalga oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar yuqori sur’atlarda davom etmoqda. Maqsad yaqin vaqtlarda zavodda ma’danni qayta ishlash yillik hajmini 10 million tonnaga yetkazishdir.

“Muruntov” konida Shimoliy-sharqiy davriy oqim texnologiyasi majmuasi hamda 2-konveyyer liniyasini kengaytirish bo‘yicha qurilish ishlari olib borilmoqda. Bu loyihalar to‘liq quvvatda ishga tushirilganda tog‘ jinslarini tashish hajmini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Kombinat jamoasi oldida katta vazifalar turibdi. 2024-2030-yillar uchun strategik rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur asosida kelgusida kombinatda oltin ishlab chiqarish hajmini 37 foizga oshirish mo‘ljallangan. Quvondiq Sanaqulovich korxonada kasaba uyushmasi Kengashi olib borayotgan ishlar, mehnatkashlarni ijtimoiy himoyalash masalalariga ham to‘xtalib o‘tdi.

“NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov bir guruh xodimlarga “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishonlari, “Navoiy kon metallurgiya kombinati faxriysi” unvonlari, “NKMK” aksiyadorlik jamiyati Faxriy yorlig‘ini topshirdi.

Kasaba uyushmalari kuniga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda “Navoiy KMK” aksiyadorlik jamiyati hamda “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi ma’muriyati va NKMK kasaba uyushmasi Kengashi Rayosati qo‘shma qarori bilan o‘tkazilgan “Yilning eng faol yosh mataxassisi”, “Ishning eng yaxshi tashkilotchisi, qonunlar va qoidalar bilimdoni”, “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha eng yaxshi vakil” ko‘rik-tanlovlari g‘oliblari taqdirlandilar. Ular orasida “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi vrach-rentgenologi Dilnoza Sharipova, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi mahandis-dasturchisi Aziz Soliev, “Qizilqum” kon boshqarmasi muhandisi Navro‘zbek Toshqulov, 7-gidrometallurgiya zavodi sex energetigi Sarvar Rabbimov, Shimoliy kon boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Alisher Xushbaqov, Markaziy kon boshqarmasi elektr montyori Javlonbek Jo‘rayev, Zarafshon qurilish boshqarmasi betonchisi Adilbek Sultamuratov, 2-gidrometallurgiya zavodi ta’mirlovchi-chilangari Sobirjon Tursunov, Janubiy kon boshqarmasi duradgori To‘lqin Maxmarzayev, 3-avtobaza haydovchisi O‘ktam Kazakovlar bor edilar.

“NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi madaniyat saroylari va uylari badiiy havaskorlarining dilrabo kuy-qo‘shiqlari, jozibali raqslari tantanaga chinakamiga bayramona tus, yig‘ilganlarga shodu xurramlik, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

**Nizomiddin SADRIDDINOV.**

■ Xabar

**Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan Samarqand viloyati hokimligi bilan hamkorlikda “Ezgu film” studiyasi tomonidan yaratilgan “Bahodir Yalangto‘sh” tarixiy-badiiy filmi milliy kino san’atimizning ulkan yutug‘i sifatida e’tirof etilmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyati taklifi bilan Navoiy viloyatida ilk bor taniqli kinoijodkorlar ishtirokida “Farhod” madaniyat saroyida ushbu film premyerasi bo‘lib o‘tdi.**

## “Bahodir Yalangto‘sh” filmi premyerasi bo‘lib o‘tdi

Film namoyishi oldidan kinoijodkorlar madaniyat saroyi to‘garak qatnashchilari ijod namunalari ko‘rgazmalari, “NKMK tarixi” muzeyidan joy olgan eksponatlar bilan yaqindan tanishib, yoshlar iste’dodi, sharafli kasb egalari mashaqqatli mehnati, yutuqlari haqida boy taassurotga ega bo‘lishdi. Kinematografiya agentligi hamda Navoiy kon-metallurgiya kombinati o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

“Bahodir Yalangto‘sh” filmi rejissor Jahongir Ahmedov tomonidan uch yil davomida suratga olinib, bu jarayonda mahoratli jamoa ishlagan. Film mohir sarkarda, Registon majmuasi bunyodkori, Samarqandga hokimlik qilgan Bahodir Yalangto‘shning hayot yo‘li va faoliyatiga bag‘ishlangan. Bu tarixiy shaxs yuksak mahorati, xayrli ishlari, buyuk xizmatlari bilan milliy davlatchiligimiz solnomasida yorqin iz qoldirgan.

- Ushbu film yaralishida prodyuser Zafar Yo‘ldoshev, rejissor Jahongir Ahmedov, ssenariy mualliflari Hasan Toshxo‘jayev va Jahongir Ahmedov, aktyorlar Habibulla Nizomov, Matyoqub Matchonov va boshqa taniqli kino ijodkorlarning xizmatlari beqiyos. Fidokorona mehnat, hamkasblarimiz mahorati ila yaralgan bu film premyeralari xalqimizga manzur bo‘layotgani, bugun uning navbatdagi namoyishi konchilar huzurida ko‘tarinki ruhda o‘tganidan xursandmiz, - deydi Kinematografiya agentligi matbuot kotibi Sayfulla Rajabov.

Darhaqiqat, filmni katta sahnada tomosha qilgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati, “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasining 600 nafardan ziyod ishchi-xodimlari, ularning oila a’zolari, mehnat faxriylari, navoiyliklar qalbiga o‘zgacha madaniy hordiq bag‘ishladi.

- Biz, boy tariximiz, ulug‘ sarkarda va allomalarimiz bilan hamisha faxrlanamiz. Bahodir Yalangto‘sh millatimiz iftixori bo‘lgan ana shunday ajdodimizdir. Tan olib aytish kerak, bu buyuk shaxs haqida bugungi avlod yetarli ma’lumotga ega emas. Buning uchun esa mana shunday mukammal filmlar, asarlar yaratish kerak, - deydi M.Hotamov. - O‘z hayoti davrida ulkan saltanat yaratib, tariximizda yorqin iz qoldirgan ajdodimiz haqida professional darajada film yaratilgani, ulkan muvaffaqiyatdan dalolat. Ko‘psonli muxlislar qatorida aytishim mumkinki, uning ahamiyati tarixni anglash, yoshlarimiz tafakkurini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega.

Film namoyishidan so‘ng viloyatimizga tashrif buyurgan kinoijodkorlarning barchasi madaniyat saroyi sahnasiga taklif etildilar. Tomoshabinlar ularni davomli qarsaklar bilan olqishladilar. “Navoiy KMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqulov muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda kino san’ati ham yangi bosqichga ko‘tarilayotganligi, “Tirik tarix” mavzusida o‘nlab filmlar yaratishga kirishilganligi, “Bahodir Yalangto‘sh” buning yorqin namunasi ekanligini aytib o‘tdi. Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizayev kinochilar konchilar va metallurglar oldida ma’naviy qarzdorligini, kelgusida nafaqat tarixiy mavzuda, balki bugungi kunning qahramonlari haqida ham filmlar yaratilishini ta’kidladi.

**“Navoiy KMK” AJ Matbuot xizmati.**

■ Tibbiyot xodimlari kuniga

**Salomatlik-insonga berilgan eng oliy ne’matdir. Tani sog‘lom, ruhi tetik odamgina hayotdan bahra olib yashaydi. O‘z hayotini el-yurt sog‘ligini asrashdek olijanob ishga bag‘ishlab kelayotgan salomatligimiz posbonlarining xizmatlari e’zozga munosib. Mamlakatimizda har yili noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi “O‘zbekiston Respublikasi tibbiyot xodimlari kuni” sifatida nishonlanib kelmoqda. Kasb bayrami arafasida “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi Tibbiy-sanitariya bo‘limi boshlig‘i A.To‘qsanov bilan suhbatlashdik.**

## SOG‘LOM BO‘LSANG, OLAM SENIKI

- Davlatimiz rahbari aytganidek, Yangi O‘zbekistonda inson qadri va manfaatlarini ta’minlashni o‘z oldimizga ezgu maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bu yo‘lda xalqimiz salomatligini mustahkamlash eng muhim vazifalarimizdan biri bo‘lishi tabiiydir. Ayni vaqtda TSBda zamonaviy talablar darajasida tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Tibbiy-sanitariya qismlari tomonidan mehnatkashlar va ularning oila a’zolari sog‘liqlarini mustahkamlash, kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va davolash ishlari samaradorligini oshirish, kombinat sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, sohaga yangi uslublar, ilg‘or tajribalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda kombinat sog‘liqni saqlash tizimida 500 nafardan ortiq vrach va 1 ming 500 nafardan ko‘proq o‘rta tibbiyot xodimlari xizmat qilishmoqda. Soha muvaffaqiyatini zamonaviy tibbiy uskuna va jihozlarsiz tasavvur qilish qiyin. So‘nggi yillarda Tibbiy-sanitariya bo‘limining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash yangi bosqichga chiqdi. 2024-yilda jami 12 milliard 356 million so‘mdan ortiq mablag‘ evaziga medikamentlar, ishlatiladigan materiallar, davolash vositalari va tibbiyot asbob-uskunalari olib kelindi.

Davomi 3-betda ▶

■ An’anaviy festival

## “QIZILQUM OLTIN MEROSI” – O‘TMISHNI BUGUNGA BOG‘LOVCHI KO‘PRIK

**Navoiy shahridagi muhtasham “Farhod” madaniyat saroyiga qadam tashlashingiz bilan qalbingiz o‘zgacha bir zavq va hayajonga to‘ladi. Mazkur dargohda milliy san’atimizni rivojlantirish yo‘lida salmoqli ishlar qilinmoqda.**

Joriy yilning 4-6 noyabr kunlari ushbu madaniyat saroyida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “NKMK jamg‘armasi” DM va NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinati madaniyat muassasalari folklor-etnografik ansambllari o‘rtasida “Qizilqum oltin merosi” folklor festivali bo‘lib o‘tdi.

Xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlarini keng targ‘ib qilish, ma’naviy dunyosini boyitish, an’analar va avlodlar davomiyligini, vatanparvarlik va ona yurtga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash maqsadida o‘tkazilgan festivalda NKMK madaniyat muassasalarining 8 ta bolalar va kattalar folklor-etnografik ansambllarining 275 nafar ishtirokchilari festivalning birinchi kunida o‘z mintaqasining teatrlashtirilgan marosimlarini, ikkinchi kunda folklor san’ati doirasida, fonogrammadan foydalanmagan holda, erkin mavzuda xalq og‘zaki ijodining eng go‘zal navolari, milliy an’analarimizni yuksak mahorat bilan tarannum etishdi. Ko‘rik tanlovda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “O‘zbekiston” telekanali bosh rejissori Alisher Madrahimov boshchiligidagi jamoa-folklorshunos olima Nasiba Tursunova, O‘zbekiston davlat filarmoniyasining folklor va estrada yo‘nalishi bo‘yicha eksperti Baxtiyor Sultonov, “O‘zbekiston” telekanali boshlovchisi Faxriddin Samatov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Toshpo‘lat Matkarimovlar hakamlik qildi. Tanlov shartlariga ko‘ra ijodiy jamoalarning chiqishlari hakamlar hay’ati tomonidan 10 balli tizim bo‘yicha ikki kategoriyada - 16 yoshgacha va 16 yosh va undan katta yosh toifasida xolisona baholab borildi. Festival ishtirokchilarining eng kichigi 8 yosh va yoshi ulug‘i – “Sardoba” folklor ansambli ishtirokchisi Kamola aya Boqiyeva 90 yoshda.




Festivalning yakuniy natijalariga ko‘ra, Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” madaniyat uyining “Dilnavo” bolalar va kattalar folklor-etnografik ansambllari faxrli birinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi. Bolalar folklor-etnografik ansambllari o‘rtasida Zafarobod qo‘rg‘onidagi “Yoshlik” madaniyat va sport markazining “Shodlik” ansambli 2-o‘rin, “Farhod” madaniyat saroyining “Sardoba qaldirg‘ochlari” ansambli 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Kattalar folklor-etnografik ansambllari o‘rtasida “Farhod” madaniyat saroyining “Sardoba” ansambli 2-o‘rin, mazkur madaniyat saroyiga qarashli “Navro‘z” klubining “Do‘stlik” ansambli 3-o‘ringa loyiq ko‘rildi. G‘olib jamoalar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi. Tadbirda NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi Isroil Rahmatov hakamlar hay’atiga minnatdorchilik bildirdi.

Mazkur festival folklor yo‘nalishida ko‘plab mahoratli ijodkorlarni, iste’dodli yoshlarni kashf etib, ularning parvoziga qanot, san’atiga kuch va ilhom bag‘ishlashi bilan ahamiyatlidir. Festival yakunida g‘olib va sovrindor folklor-etnografik ansambllari badiiy havaskorlari va poytaxtdan tashrif buyurgan taniqli san’atkorlar ishtirokidagi gala konsert barchaga manzur bo‘ldi.

**Dildora KARIMOVA.**

■ 11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni

**Kasaba uyushmalari bugungi hayotimizda katta ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda bu jamoat tashkilotining mavqei yanada yuksalib, xalqchil tuzilmaga aylandi. Shubhasiz, hozirgi barcha islohotlarning tagzaminida inson qadrini ulug‘lashdek ulug‘ maqsad mujassam. Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi ham bevosita shu maqsad yo‘lida xizmat qilayotgan jamoat tashkilotlaridan biridir. Muxbirimiz O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni arafasida NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi Isroil Rahmatov bilan shu haqida suhbatlashdi.**

# EZGU HARAKATLAR –

## INSON VA UNING ISTIQBOLI UCHUN

- So‘nggi yillarda kasaba uyushmalarining jamiyatdagi o‘rni sezilarli darajada o‘sdi, ushbu xalqchil tashkilot hayotida yangi rivojlanish bosqichi boshlandi. Ayniqsa, oxirgi sakkiz yillikda kasaba uyushmalariga e’tibor yanada yuksaldi. Ularni qo‘llab-quvvatlash borasida tarixiy qadamlar tashlandi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan 11 noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni etib belgilanganligining o‘zi soha vakillarini behad quvontirishi bilan birga, yangi marralar, yangi tashabbuslar sari ruhlantirdi. Kasaba uyushmalarining hozirgi huquqiy maqomi ishchilarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va ularni ifodalashga imkon berayotir. Kasaba uyushmasi a’zolarining mehnatga oid huquq va manfaatlarini ta’minlash, mehnat jamoalarida xodimlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida keyingi yillarda kasaba uyushmalari tizimida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Soha xodimlarining sa’y-harakatlari bilan ishchi-xizmatchilarning mehnat huquqlari ta’minlanmoqda, xodimlarning hayoti va mehnati uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan holatlarning oldi olinmoqda. Bu islohotlarning barchasi bu borada samarali tizim yaratilganidan dalolat bermoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi o‘z safida 80 ming nafardan ortiq a’zolarni birlashtirib, ularning bundanda yaxshi yashashi, munosib mehnat qilishi, mazmunli dam olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish yo‘lida o‘zining salmoqli hissasini qo‘shib kelmoqda.

> **Ayni vaqtda NKMK kasaba uyushmasi Kengashi tizimida 80 ming nafardan ortiq a’zoni jamlagan 7 ta Birlashgan kasaba uyushmasi qo‘mitalari va ularning tarkibida 150 ta kasaba uyushmasi qo‘mitalari faoliyat ko‘rsatmoqda.**

NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi keng tashkiliy tuzilma bo‘lib, kombinatimizning har bir bo‘linma, korxona va zavodlarida kasaba uyushmasi faoliyatini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borish maqsadida Birlashgan kasaba uyushma qo‘mitalari faoliyat yuritib kelyapti. Ma’lumki, Jamoa shartnomasi kombinatimizda alohida o‘ringa ega. Jamoa shartnomasi ishchi-xodimlar, ularning oilasi, faxriylarimiz manfaati va huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda asosiy hujjat hisoblanadi. Kombinat tomonidan nafaqat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini bosqichma-bosqich oshirib borishga, balki ishchi-xodimlarimiz, ularning oilasi va farzandlari, mehnat faxriylari va nafaqaxo‘rlarni ijtimoiy himoya qilishga, sharoitlarini muntazam yaxshilab borish, mehnat muhofazasi, tomonlar o‘rtasida ijtimoiy sherikchilik tamoyillariga birinchi darajali vazifa sifatida qaralib kelinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik modelini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining Jamoa shartnomasi ijtimoiy sheriklikning korxona miqyosidagi ko‘rinishiga yaqqol namuna bo‘la oladi. Kombinat Jamoa shartnomasida mehnatkashlarning ijtimoiy shart-sharoitlarini yanada yaxshilab borish, ularga qo‘shimcha kafolatlarni tatbiq qilish, mehnat muhofazasi, tomonlar o‘rtasida ijtimoiy sherikchilik tamoyillarini amalda bajarilishini ta’minlash, mehnatga munosib haq to‘lash, yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularning malakasini oshirib borish kabi qator ishlar nazarda tutilgan va amalga oshirilmoqda. Kengashimiz va O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi o‘rtasida uzoq yillik va samarali hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘yilib, bu munosabatlar mehnat muhofazasi, mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarni himoya qilish, kasaba uyushmasi xodimlarini o‘qitish, malakasini oshirish, mehnatkashlarni sog‘lomlashtirish, ommaviy-madaniy va sport ishlari hamda bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari ishlarini tashkil etish sohalarida o‘z aksini topyapti. Qolaversa, mazkur samarali hamkorlik aloqalari xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdek yagona maqsad yo‘lida birlashishga mustahkam zamin bo‘lmoqda.

### XAVFSIZ MEHNAT SHAROITLARINI YARATISH – BOSH MAQSADIMIZ

Korxona va tashkilotlarda mehnat qilayotgan har bir xodimning munosib mehnat sharoitlarida ishlashi, mehnatiga yarasha haq to‘lanishiga erishish bilan birga, ularning salomatligi muhofazasiga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Natijada kasaba uyushmasi a’zolarining safi kun sayin kengayishiga zamin yaratilmoqda. Kasaba uyushmasi Kengashi har bir hamkasbimiz taqdiri, ularning hayoti uchun befarq emas. Bu borada barcha zarur choralar ko‘rilmoqda. Korxonamizda mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi doimiy e’tiborimizda. Sir emas, kon-metallurgiya sanoati inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan ishlab chiqarishlar, xatarlar, murakkab jarayonlar bilan bog‘liq. Shu bois bu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda.






Ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish maqsadida ishlab chiqarishga yangi, xavfsizroq texnologiyalar joriy etilmoqda, uskunalar va mavjud texnologiyalar doimiy ravishda modernizatsiya qilinmoqda. Albatta, jamoamizning har bir a’zosi sog‘ligi va hayotini asrash masalasi barchamizning bosh vazifamiz bo‘lishi shart. Negaki, insonlar kombinatning asosiy boyligidir. Bu Jamoa shartnomasi bandlarida ham o‘zining to‘la ifodasini topgan. Jamoa shartnomasiga muvofiq rahbariyat kombinat ishchi-xodimlari, ularning oilasi, farzandlari, mehnat faxriylarimiz salomatligi, ijtimoiy himoyasiga qancha talab etilsa, shuncha mablag‘ni ayamasdan bor imkoniyatlarni ushbu ezgu maqsadga safarbar etib kelyapti. Ushbu ustuvor vazifalarni samarali bajarish uchun kasaba uyushmasi Kengashi tizimida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, mehnat jamoalarida xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash ishlari yangi pallaga kirdi. Kasaba uyushmasining amaliy faoliyatini har bir mehnatkash uchun munosib mehnat sharoitini yaratish, jamoa ichiga chuqur kirib borayotgani, odamlarning og‘irini yengil qilish, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo‘lishni o‘zining ustuvor vazifasi sifatida belgilab olganida, deb bilamiz.

Inson, uning qadr-qimmati, hayotidan rozi bo‘lishiga erishish davlatimiz Rahbari olib borayotgan xalqparvarlik siyosatining bosh va ustuvor yo‘nalishidir. Bunga erishish uchun odamlarning g‘amu tashvishlari bilan yashash, har bir rahbarning bevosita jamoalarda bo‘lishi, oddiy odamlar bilan uchrashishi, yuzma-yuz muloqot qilishi, ularni tashvishlantirayotgan muammolarni o‘rganishi hamda hal etish choralarini ko‘rishi talab etiladi. Shu ma’noda rahbariyatning mehnat jamoalari bilan uchrashuvlari, shaxsiy masalalari bo‘yicha qabullarini qat’iy jadval asosida tez-tez tashkil etishi, masalalarni yuzaki emas, chuqur o‘rganishi va hal etish choralarini ko‘rishi lozim bo‘ladi. Odamlar haqida g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga zarur shart-sharoitlarni nazorat qilish kasaba uyushmalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifasi hisoblanadi.

Har yili minglab kasaba uyushmasi a’zolari qonunchilikning turli sohalari bo‘yicha bizdan yuridik maslahatlar olishadi va muammolarini hal etishda Kengashimiz alohida tashabbus va jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.

### AYOL BAXTLI BO‘LSA, JAMIYAT YUKSALADI

So‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida xotin-qizlarga qaratilayotgan ulkan e’tibor, ko‘rsatilayotgan ehtirom va g‘amxo‘rliklar jamiyatimizda ayollarning mavqeini yanada yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda. O‘tgan davr mobaynida ularning manfaatlarini aks ettiruvchi qator huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda, jamiyatimizda ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tengligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, oilaviy sharoitlarni yaxshilash masalalari hal etilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, ular uchun davlat siyosati darajasida keng va teng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ta’kidlash lozimki, bu kabi ezgu ishlar mamlakatimizning ulkan sanoat korxonasi bo‘lgan kombinatimizda ham o‘zining yaqqol ifodasini topmoqda. Bugun kombinatimizda xotin-qizlarimiz mehnati qadrlanib, ularga katta ishonch bildirilmoqda. Korxonada qabul qilingan Jamoa shartnomasi ishchi-xizmatchilar qatorida xotin-qizlarimiz manfaatlariga ham xizmat qiladi. Jumladan, ayni paytda amalda bo‘lgan Jamoa shartnomasi ham xotin-qizlarimiz huquqlarini o‘zida mukammal namoyon etgani bilan ahamiyatlidir.

Ayni paytda kombinat tizimida 6 178 nafar xotin-qiz turli sohalarda erkaklar bilan yelkama-yelka mehnat qilmoqda. Ularning 263 nafarini rahbar xotin-qizlar tashkil etadi. Ularning huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ta’minlash yo‘lida “Ayollar Kengashi” tashkil etilgan. Jamoatchilik asosida ishlaydigan “Ayollar Kengashi” korxonada ayollar uchun yaratilgan sharoitlarni o‘rganadi, lavozimlarga tavsiya qilishda ayollar va erkaklarga, shu jumladan, har bir bo‘linmada tayyorlangan zaxira kadrlar bazasiga ayol nomzodlarga teng munosabatda bo‘lishini nazorat qiladi, ularni xizmat va boshqa muhim sohalarda boshqaruv lavozimlariga tayyorlaydi.

Xotin-qizlarimizning mavqeini yuksaltirish borasidagi keng ko‘lamli islohotlar jadallik bilan davom etyapti. Ayni paytda bu boradagi ishlarda xalqaro hamkorlikning ham o‘rni muhim deb bilaman. Shu ma’noda yaqinda gender tenglik bo‘yicha bo‘lib o‘tgan xalqaro kon-metallurgiya forumida ham dolzarb masalalar ilgari surildi. Mazkur forumda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ bosh hamkor sifatida ishtirok etdi. Dunyoning 15 ta mamlakatidan 50 nafardan ortiq ma’ruzachi va 250 nafardan ziyod vakillar orasida kombinatimiz xotin-qizlari qatnashgani quvonarli holdir. “Konchilik sohasi va sanoat tarmoqlarida mintaqaviy va xalqaro hamkorlik: muhim qadamlar va taraqqiyot yo‘nalishlari” mavzusidagi forumda vakillarimiz xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularni o‘qitishga qaratilgan turli dastur va tashabbuslar haqida fikr bildirishdi. Ishonamizki, mazkur mintaqaviy hamkorlik korxonaning “Tog‘-kon sanoatida ayollar” harakatidagi rolini kuchaytirib, gender tengligiga erishish va Markaziy Osiyoda tog‘-kon sanoatida ayollar uchun yetakchilik imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lini ochib beradi.

Xotin-qizlar huquqlarini ilgari surish va himoya qilish, ularning ta’lim olishi va rivojlanishi hamda iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish borasida hamkorlikdagi ishlarimiz ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda.

### MEHNATKASHLARNI SOG‘LOMLASHTIRISH – MUHIM YO‘NALISHLARIMIZDAN BIRI

Kombinatda mehnatkashlar va ularning oila-a’zolarini sog‘lomlashtirish hamda madaniy saviyasini oshirish bo‘yicha yetarlicha imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, Zarafshon shahrida “Ona va bola” skrining markazining faoliyat olib borayotgani aholi salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirishni ta’minlamoqda. Tibbiy bo‘limlarning shifokorlari muntazam ravishda yetakchi klinikalarda malaka oshirish kurslarini o‘tashmoqda.

Ishchilar salomatligini yaxshilash maqsadida ularga “NKMK” sanatoriysi, “Gornyak” pansionati, “To‘dako‘l” dam olish maskani, “Metallurg”, “Konchi” va “Nurobod” sanatoriy-profilaktoriylari, Yalta va Kislovodsk shahridagi “O‘zbekiston” sanatoriylari, “Qirg‘iz dengizi sohillari”, “Yangiyo‘l”, “Shaxand” hamda ijtimoiy sug‘urta budjeti mablag‘lari hisobidan “Turon”, “Oqtosh”, “Chinobod”, “Umid gulshani”, “Bo‘ston”, “Sitorai Mohi Xossa”, “Chortoq”, “Chimyon” sanatoriylariga imtiyozli narxlarda har yili mingdan ortiq yo‘llanmalar ajratyapmiz.

Yurtimizda tarixiy shaharlar, tabarruk qadamjolar, o‘z tabiati, tarovati bilan barchani lol qoldiruvchi iqlimi so‘lim va bahavo yana ko‘plab maskanlar borki, mehnatkashlarimiz u yerlarda ham bo‘lishib, ko‘ngilli hordiq chiqarib, salomatliklarini tiklashmoqda. Bularning hammasi mehnatkashlarni yurtimizning qadimiy obidalari, boy merosimiz bilan oshno etish, Vatanni tanitish va shuning barobarida ularga madaniy va ma’rifiy quvvat berishdek ishlarimizga ham qanot bo‘layotir.

So‘nggi yillarda kombinat bo‘linmalari joylashgan hududlarda ko‘plab sport va madaniyat muassasalari, dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlari qad rostladi, ta’mirlanib, zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. Tibbiyot muassasalari va ularda zamonaviy va yuqori texnologik tashxis va sog‘lomlashtirish xizmatlari joriy etildi. Albatta, bu jarayonlarda kasaba uyushmasi Kengashi bevosita ishtirok etib, ularni zarur jihozlar bilan ta’minlash, ijodiy jamoalarimiz va sportchilarimizning turli darajadagi tanlov va musobaqalar xarajatlari uchun mablag‘ ajratildi.

### HAMISHA KO‘MAKKA SHAYMIZ

Turli sana va bayramlar doirasida yana bir qancha ijobiy ishlar ham amalga oshirildiki, buning natijasi o‘laroq, kasaba uyushma Kengashi ishchi-xodimlarning eng quyi qatlami orasigacha bevosita kirib bordi.

Kasaba uyushmalari tomonidan bo‘linmalardagi mehnat sharoitlarini nazorat qilish barobarida ishchi-xizmatchilarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashda ma’muriyat bilan doimiy hamkorlik qilinmoqda.

Xotin-qizlar, pensionerlar hamda yoshlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy muhofazasini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, pensiya yoshidagi shaxslar hamda korxonalarning sobiq xodimlari moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanib turibdi. Shuningdek, har yili yangi o‘quv yili arafasida kombinat ishchi-xodimlarining kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalari farzandlari uchun maktab o‘quv qurollari, darsliklardan iborat jamlanma topshirilishi an’anaga aylangan.

### FARZANDLAR KAMOLI DOIM USTUVOR VAZIFAMIZ BO‘LGAN

Kasaba uyushmasi Kengashi nafaqat ishchi-xizmatchilar, balki ularning farzandlari kamolini o‘ylashni ham o‘z zimmasiga olgan. Ertamiz egalari, kelajagimiz vorislari bo‘lgan farzandlarimiz uchun doimiy g‘amxo‘rlik qilib borish biz uchun odatga aylangan. Ayniqsa, jajji farzandlarimiz uchun muhim palla-bu yozgi ta’til davri. Ularning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish doim muhim vazifamiz bo‘lgan. Joriy yilgi mavsumda ham asosiy e’tibor bolalar va xodimlarning xavfsizligini ta’minlash, salomatligini muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena qoidalariga qat’iy rioya etish va albatta, ularning ko‘ngilli hordiq chiqarib, jismonan va ruhan chiniqishlariga, salomatliklarini mustahkamlashlariga qaratildi. Har yili 11 ta bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK va “NKMK jamg‘armasi” DMda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarning 12 ming nafardan ortiq farzandlari yozgi ta’til chog‘larini mazmunli o‘tkazishadi. Buning uchun esa shu uchta ulkan korxonada ishlayotgan ota-onalarga yo‘llanmalar ajratilishida katta imtiyozlar yaratilgan. Bu kabi imkoniyatlar, imtiyozlar yaratilishi bo‘yicha kombinat ma’muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi respublikamiz sanoat korxonalari orasida birinchi o‘rinda turadi, desak ham yanglishmaymiz. Oromgohlarning pedagog, xizmatchi, tibbiyot va boshqa soha vakillaridan tarkib topgan ahil jamoasi har yili yoz mavsumini zo‘r uyushqoqlik bilan qarshi olishadi. Ularning har biri tegishli malaka talablari va tajribaga ega mutaxassislardir.

Har yili NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi va “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi tomonidan “Eng namunali bolalarni sog‘lomlashtirish oromgohi” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazib kelinadi. Unda bolalarni yozgi sog‘lomlashtirish mavsumining yakunlari bo‘yicha mavsumni yuqori saviyada, uyushqoqlik bilan o‘tkazgan oromgohlar rag‘batlantirib boriladi. Joriy yilda mazkur ko‘rik-tanlovda “Zarafshon” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi faxrli 1-o‘ringa sazovor bo‘ldi. “So‘g‘diyona” oromgohi 2-o‘ringa va “Sarmish” oromgohi esa 3-o‘ringa loyiq deb topildi. Shuningdek, tanlovning “Eng yaxshi ovqatlantirishni tashkillashtirgan oromgoh”, “Eng yaxshi sport tadbirlarini tashkillashtirgan oromgoh” kabi qator nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblari aniqlanib. diplom va qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

Navoiy shahridagi “Mash’al” va Zarafshon shahridagi “Yoshlik” mehnat va dam olish oromgohlarida 15-17 yoshdagi yigit-qizlar mehnat faoliyatlarini amalga oshirish bilan bir qatorda sportning futbol, suzish, shaxmat-shashka, yengil atletika turlari bo‘yicha, shuningdek, mohir qo‘llar, rassomlik to‘garaklarida mashg‘ulotlar o‘tashdi. Bundan, konchilar farzandlari, ularning ota-onalari nihoyatda mamnun bo‘lishmoqda. Oromgohlarni mavsumga o‘z vaqtida talab darajasida tayyorlashda korxona va tashkilotlar rahbarlari, kasaba uyushma qo‘mitalari mas’uliyat bilan yondashib, belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirdilar. Yoshlarda vatanparvarlik, yurtga sadoqat, halollik va mardlik tuyg‘ularini mustahkamlashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

Ijtimoiy masalalarni hal etish biz uchun har doim muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan va bundan keyin ham izchil davom ettiriladi. Har bir ijro ishi ortida ishchi-xodimlarimizning manfaati, taqdiri, sha’ni va qadr-qimmati bor ekan, uni amalga oshirish asosiy vazifamiz bo‘lib qolaveradi.

**Dildora KARIMOVA tayyorladi.**

■ Matbuot anjumani

# IJTIMOIY HIMOYA – E’TIBORDA

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati ishchi-xodimlari, ularning oila a’zolari hamda pensionerlarni ijtimoiy himoyalash NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi va uning kombinat bo‘linmalari, “NKMK jamg‘armasi” DM, “Navoiyuran” DK, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetidagi 7 ta Birlashgan kasaba uyushmasi qo‘mitasi, 150 ta boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkilotlarining asosiy vazifasidir.**



Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar 8 noyabr kuni OAV vakillari va jurnalistlar uchun “Farhod” madaniyat saroyida o‘tkazilgan matbuot anjumanida muhokama etildi. Matbuot anjumanida kombinat xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi I.Rahmatov bu masalalarga atroflicha to‘xtaldi.

Kasaba uyushma vakillarining kombinat ma’muriyati bilan birgalikda ish joylari, ishlab chiqarish uchastkalari va sexlarda ish sharoitlari, mehnat muhofazasi, unga rioya etilish holati, ishchi-xodimlarni yo‘riqnomalardan o‘tkazish yuzasidan maqsadli o‘rganishlar olib borishi tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Kombinat muhandis- texnik xodimlarining mehnat muhofazasi yuzasidan bilim darajasini oshirish maqsadida ular o‘rtasida “Ishning eng yaxshi tashkilotchisi, qonunlar va qoidalar bilimdoni”, mehnat muhofazasi vakillari o‘rtasida esa “Yilning eng yaxshi mehnat muhofazasi vakili” hamda turli yo‘nalish bo‘yicha “Yilning eng yaxshi yosh mutaxassisi” kabi tanlovlar o‘tkazilib kelinayotgani istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kombinatda ishchi-xodimlarni sog‘lomlashtirish uchun Tibbiy-sanitariya bo‘limi va uning joylardagi beshta Tibbiy-sanitariya qismlari zamonaviy tibbiy-diagnostika uskunalari bilan jihozlangan. Mehnat ahliga kombinat va respublikamiz sihatgohlariga har yili mingtadan ortiq imtiyozli yo‘llanmalar ajratilmoqda.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida ishchi-xodimlar va ularning oila a’zolari, pensionerlar va mehnat faxriylari uchun Samarqand, Xiva, Toshkent, Buxoro, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarga sayohatlar tashkil etilmoqda.

Ishchi-xodimlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, madaniy hordiq chiqarishlari uchun madaniyat muassasalari tashkil etilgan. Navoiy shahridagi “Farhod”, Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” va Uchquduq shahridagi “Uchquduq” madaniyat saroylari, Nurobod shahridagi “Nurobod” madaniyat uyi, Zafarobod qo‘rg‘onidagi “Yoshlik” madaniyat va sport markazi, Karmana tumanidagi “Navro‘z” klubi, Zarkent qo‘rg‘onidagi “Konchi” madaniyat-sport majmuasi, Navoiydagi bolalar ijodiyoti markazi kabi maskanlar jamoalari o‘zbek madaniyati va san’atini yanada ravnaq toptirish, yosh avlodning ma’naviy dunyosini yuksaltirishdek ezgu ishga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Kasaba uyushmasi Kengashi ishchi-xodimlarning farzandlari uchun doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelmoqda. Har yili yozgi kanikul mavsumida uchta korxona mehnatkashlarining 12 ming nafardan ko‘proq o‘g‘il-qizlari kombinat tasarrufidagi bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam oladilar.

Shunisi quvonarliki, Jamoa shartnomasida ko‘zda tutilgan barcha majburiyatlarga qat’iy amal qilib kelinmoqda. Xususan, ishchi-xodimlarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash uchun joriy yilning o‘tgan davrida 3 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi. Kasaba uyushmasi tasarrufida tashkil etilgan “Birdamlik” fondi tomonidan kam ta’minlangan, yolg‘iz pensioner va ijtimoiy himoyaga muhtoj 384 nafar ishchi-xodimga 2024 yilning 9 oyida 895,5 million so‘m miqdorida moddiy yordam ko‘rsatildi. Boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitalari tomonidan kam ta’minlangan, yolg‘iz pensionerlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj, ko‘p farzandli ishchi-xodimlarga 4,4 milliard so‘m miqdorida moddiy yordam pullari ajratildi. Jamoatchilik asosida faoliyat olib borayotgan kasaba uyushmalari faollari 2,1 milliard so‘m miqdorida rag‘batlantirildi.

Tadbirda OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

**“NKMK” AJ Matbuot xizmati**

■ Tibbiyot xodimlari kuniga

# SOG'LOM BO'LSANG, OLAM SENIKI

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Jumladan, chaqaloqlarda og'ir asoratlar bilan kechuvchi yurak yetishmovchiligi kasalliklarini, davolash uchun sun'iy nafas berish apparati, dori vositalarini tomir ichiga yuborishda va ular miqdorini belgilashda qulaylik tug'diradigan shpris nasosi, yosh bolalar va tomirlari yaxshi rivojlanmagan yoki chuqur joylashgan bemorlarda tomirni yoritib berish hisobiga ularga venopunksiya qilish imkonini yengillashtirib beradigan-venovizor, bu uskunani kelajakda varikoz kasalliklari, kengaygan venalarni lazer va skleroterapiya qilishda qo'llash ko'zda tutilmoqda, undan tashqari lor va xirurgik amaliyotlarni bajarishda qo'llaniladigan-diodli lazer tizim, og'ir yoki doimiy gemodinamik, nafas ko'rsatkichlari va EKG ko'rsatkichlarini kuzatish imkonini beruvchi kardiomonitor, homilador ayollarda ona va homila orasidagi qon aylanishni baholash va ulardagi yetishmovchilik va patologik holatlarni aniqlashda qo'llaniladigan tibbiy uskuna, katarakta bilan og'rigan bemorlarda ko'rishni tiklashning zamonaviy, past shikastli va eng ishonchli usuli hisoblangan fakoemulsifikatsiyada ishlatiladigan "Megatron" fakoemulsifikator jarohlik apparati shular jumlasidandir.

Ayni vaqtda mutaxassislarimiz tomonidan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va jihozlar yordamida murakkab jar-



rohlik amaliyotlari yuksak mahorat bilan amalga oshirilmoqda. Lor bo'limida lazer apparat orqali lor a'zolarida septoplastika, konxoplastika, tonzilloektomiya, lor a'zolar xavfsiz o'smalarini olish, polipotomiya amaliyoti qo'llanilmoqda.

Ko'p tarmoqli jarrohlik bo'limida esa neyrojarroh Oybek Eshmurodov tomonidan yangi texnologiyalar yordamida bosh suyagi jarohati va amaliyotidan keyingi deffektlar titan moslamasi orqali plastikasi, umurtqa pog'onasidagi disk churralari va turli ko'rinishdagi shikastlanishlarda umurtqa pog'onasi vazifasini barqarorlashtirish maqsadida tranpedikulyar fiksatsiyasi bajarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi olimlari tomonidan ixtiro qilingan "Hemoven" kukunsimon gemostatik moddasi barcha xirurgik, neyroxirurgik, travmatologik jarrohlik amaliyotlarida keng qo'llanib kelinmoqda. Oftalmologiya bo'limida eng zamonaviy va ko'p funksiyali "Megatron" fakoemulsifikator jarrohlik apparatidan foydalangan holda hozirgi kunda mingga yaqin jarrohlik amaliyoti bajarilgan.

Bunday murakkab jarrohlik amaliyotlarini amalga oshirish va tibbiyotning barcha sohalarida yuqori natijalarga erishishda, yuqori malakaga ega bo'lish lozimdir. Malakali jarrohlarimizning mahalliy va xorij mutaxassislari bilan mahorat darslarini o'tkazishi an'ana tusiga kirgan. Oktabr oyida Buxoro viloyati bosh torakal jarrohi bilan hamkorlikda zamonaviy kichik invaziv torakoskopik jarrohlik amaliyoti muvafaqqiyatli amalga oshirildi. Tuzilgan shartnomalarga muvofiq vrachlarimiz O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida, hamshiralarimiz O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va dorishunos xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Navoiy viloyati filialida o'z malakalarini oshirishmoqda.



Vrachlarimizdan N.Majitova, Ye.Soy, S.Toshev, M.Quvonov, J.Abdullayev, O.Eshmurodovlar Rossiya, Koreya, Polsha, Xitoy kabi xorijiy mamlakatlarda o'z malakalarini oshirib qaytishdi. Xodimlarimizning ilmiy salohiyatini ko'tarishga ham katta e'tibor berilmoqda. Ayni vaqtda onkolog shifokor B.Raxmatov, neyrojarroh O.Eshmurodov, yuz-jag' jarrohi V.Axadov tibbiyot yo'nalishi bo'yicha falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun ilmiy mavzularini tasdiqlatib, izlanishlarini davom ettirishmoqda.

Fidokorona mehnat munosib taqdirlanmog'i kerak. Tibbiyot sohasi rivojiga qo'shgan munosib hissasi uchun terapiya bo'limi mudiri Ye.Soy "Do'stlik" ordeni, yuqumli kasalliklar bo'limi mudiri G.Ochilova II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlangan. So'nggi yetti yilda Tibbiy-sanitariya bo'limining malakali, o'z kasbining fidoyilari bo'lgan tibbiyot xodimlaridan 79 nafari "Konchilik shuhrati", 24 nafari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan mukofotlanishdi.

Ahil jamoamizda o'z kasbining chinakam fidoyilari xalqimiz salomatligiga posbonlik qilayapti, K.Rahmatov, S.Ikramova, U.Rahmonov, F. Hojiyev, Sh.Tosheva, S.Shodiyev, Ye.Soy, I. Ahtamov, G.Nuriddinova, A.Mirzayev, G. Achilova, S.Ikromov, T. Rustamov, N.Sharipova, E.Suyarov, D.Abdullayev, D.Jo'rayeva, N.Boboyorov, M.Boboyeva, X.Nuraliyev, Sh.Sa'dullayev, E.Gadjiyeva, F.Mavlonov, Sh.Norbayeva, M.Axmedov, B.Bobobekov, O.Bobomurodov va boshqa shifokorlarimiz har qanday vaziyatda insonlar salomatligi uchun kurashib, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatib kelishyapti.

Hayot shirin, sog'likda umrguzaronlik qilish yanada totli. Baxtli-saodatli turmush kechirish uchun insonga, avvalo sog'lik kerak. Dori-darmonlar, tibbiy asbob-uskunalar qanchalik ko'paymasin, shifokorlar saviyasi oshmasin, agar inson o'z salomatligi haqida qayg'urmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir inson o'z sog'ligini asrashi lozim. Dono xalqimiz bejizga "Sog'lik-tuman boylik" demaydi. Buni hamisha yodda saqlash kerak.

**Suhbatni A.AHMEDOVA yozib oldi.**

# O'Z KASBINING FIDOYISI

**Yaqinda bir gurungda o'tganlar haqida suhbat qo'r oldi. Nurobodlik shifokor, rahmatli Jumaboy aka Amirqulov eslandi, farzandlarining yutuqlari to'g'risida fikr-mulohazalar aytildi.**



- Bizning "o'radan" (eldan) xo'p yaxshi insonlar o'tgan. Shulardan biri - Jumaboy aka yetuk do'xtir edi. Butun umr odamlarga xizmat qilib o'tdi, - deya mavzuni boshladi faxriy pedagog Said Husanov.

Bir maydon davradagilar buni ma'qullashib, u insonning shaxsiy sifatlari ta'riflandi.

- Hozir farzandlari ham yaxshi joylarda ishlayapti ekan. Bari ilmli, el koriga yarayotgan oqil farzandlar. Ko'pchiligi otasi izidan borib, sulola ishini davom ettirmoqda, - deya gapga qo'shildi Yo'ldosh aka Boymanov. – Bilishimcha, Gulchehra degan qizi hozir tumanimizdagi sanatoriyni boshqaryapti.

Darvoqe, Gulchehra Normatovani bugun yaqin-yiroq, el-elat, kombinat tizimidagilar yaxshi biladi. O'z kasbining mutaxassisi, tajribali shifokor, jamoa rahbari...

* * *

Gulchehra opa Ulus qishlog'ida shifokorlar oilasida tug'ilgan. 1988-yilda tumandagi 3-o'rta maktabni, 1994-yilda Samarqand davlat tibbiyot instituti davolash fakultetini a'lo baholarga tamomlab, mehnat faoliyatini tuman markaziy shifoxonasida boshlagan. Hech qancha vaqt o'tmasdan, yosh mutaxassis o'zining intilishi bilan el nazariga tushdi. Zero, yaxshi kadr hamisha e'tiborda bo'ladi.1999-yilda u 4-Tibbiy-sanitariya qismi ichki kasalliklar bo'limi mudiri lavozimiga ishga taklif etildi.

2016-yilda esa "Nurobod" sanatoriy-profilaktoriysi bosh shifokori lavozimiga loyiq topildi. Mana 25 yildirki, kombinat tizimida konchi-metallurglar, ularning oila a'zolari, mehnat faxriylariga shirin muomalasi, tajribasi bilan ularning sog'ligini mustahkamlashga xizmat qilib kelyapti. Bugun ushbu shifo maskanida hordiq chiqarib, davolanayotganlar opa va uning rahbarligidagi ahil jamoa xizmatlari, yaratib berilgan sharoitlar va muolajalardan mamnun.

- Odamzot azaldan davo topgan maskanga talpinadi. Bundan bir necha yil oldin Nuroboddagi sanatoriyga kelganda jamoaning xushmuomalaligi, radionli suvining shifobaxshligi menga ma'qul keldi. Bosh shifokori ham nihoyatda samimiy ekan. Sihatgoh yoqib qolgani uchun har yili dam olishga kelyapman, - deydi zarafshonlik R.Dangalova.

Oila uchun farzand tarbiyasi birinchi o'rinda turadi. Shu bois, Gulchehra opa ham ona, ham ota o'rnida to'rt nafar farzandi ta'lim-tarbiyasi, kelajakda yo'lini topishiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Turmush o'rtog'i Nurbek Normatov 2018 yilda baxtsiz hodisa oqibatida vafot etgani bois bu majburiyat to'liq uning zimmasida. To'ng'ich o'g'li Ma'rufjon Toshkent axborot texnologiyalar universitetini tugatib, Janubiy kon boshqarmasida muhandis bo'lib ishlayapti. Mansurjon Toshkent Axborot texnologiyalari universitetida, Maxsudjon va Xondamirlar Nurobod tumanidagi 2-umumta'lim maktabida tahsil olmoqda. Opaning bor umidi farzandlaridan.

* * *

Amirqulovlar sulolasini ko'pchilik yaxshi taniydi. Bu avlodning davomchilari bugun nufuzli tibbiyot muassasalarida xalqimizga sidqidildan xizmat ko'rsatib kelyapti. Gulchehra opaning otasi rahmatli Jumaboy aka Amirqulov yurt tanigan, oliyjanob fazilatli inson edi, tibbiyot sohasi ravnaqiga katta hissa qo'shib, ko'plab shogirdlar tayyorlagan, qanchadan-qancha insonlarga shifo ulashib, hayotga qaytargan tajribali va taniqli shifokor edi. To'rt nafar o'g'il, ikki nafar qizini tarbiyalab, o'qitib, hayotga tayyorlagan.

Ko'p yillar Nurobod shahridagi 4-Tibbiy-sanitariya qismi boshlig'ining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari, yuqumli kasalliklar bo'limi mudiri lavozimlarida ishlagan bu insonning xizmatlari, qilgan yaxshiliklarini samarqandliklar ko'p eslashadi va unutishmaydi.

Boshquduqlik G'ulom Ortiqov shunday xotirlaydi: "Mustaqillikning ilk yillari. Qish qattiq kelgan. Hammayoq tizza bo'yi qor. Otam qattiq kasal bo'lib qoldi. U paytlar hozirgidek texnika, telefon, tibbiyot, tez yordam qayerda, deysiz! Qishlog'imizda shifokor anqoning urug'i. Bunday paytda nafaqat bizning qishloq odamlari, balki, butun nurobodliklar Jumaboy akaga yukinardi. Biz ham hech ikkilanmasdan qo'shnimiz rahmatli Bahriddin akaning traktoriga o'tirib, yo'lga chiqdik. Bir amallab manzilga yetib bordik. Har qalay biz izlagan, najot istagan odam uyda ekan. Iltimosimizni yerda qoldirmadi. Uyga yetib kelganda, otamning isitmasi yanada oshib, ahvoli yomonlashgandi. Do'xtir tezda ishga kirishib ketdi. Avvaliga ukol bilan otamning isitmasini tushirdi. Keyin muolajaga kirishdi va otamning ahvoli biroz yaxshilandi. Keyinchalik esa qatnab davolab, hayotga qaytardi. Demoqchimanki, Jumaboy aka mana shunday,kechasimi, kunduzimi, hech kimdan yordamini ayamasdi. Bunday yaxshiliklari ortidan u kishining el-elatda hurmat-e'tibori juda baland edi". Gulchehra Normatovaning onasi Madina opa ham oliy ma'lumotli shifokor, uzoq yillar 4-Tibbiy-sanitariya qismida bolalar shifokori bo'lib ishlagan. Ayni paytda farzandlari, 19 nafar nabira va evaralari ardog'ida keksalik gashtini surib kelyapti.

Sulolaning shifokorlik kasbiga mehri farzandlaridan, nabiralariga ham o'tdi. Jumaboy akaning o'g'li Baxtiyor Amirqulov Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy markazida bo'lim rahbari bo'lib ishlamoqda. Tibbiyot fanlari doktori, professor ilmiy unvoniga ega. O'g'li Rahimjon ham ushbu markazda jarroh bo'lib ishlaydi. Nabirasi Dilnoza Amirqulova 30 yoshida AQShda bioximiya va genetika bo'yicha (PhD) ilmiy unvonga ega bo'lgan. Gulchehra opa ham sulolaning munosib vakillaridan biridir. Zafar, Jamshid, Shahnozalar ham oliy ma'lumotli bo'lib, vazirlik, davlat tashkilotlari va muassasalarida xizmat qilib kelishyapti.

* * *

Inson mehnati, oliyjanob fazilatlari bilan aziz. Gulchehra opa falsafasida eng ulug' narsa inson qadri hisoblanadi. Uning nazdida inson qanchalik qadrlanib, mehnati nechog'li munosib taqdirlansa, o'z ishidan mamnun bo'lib, xalqimizga xizmat qilishdan to'xtamaydi. Gulchehra Normatova faoliyatida bu jihatlar o'z ifodasini topyapti.

**Dildora KARIMOVA.**

**O'rta tibbiyot xodimi kim? Haqli savol. U hamshira, u doya, u feldsher, laborant, ularning aksariyati ayol, ona, oila bekasi. Ixlim opaning beg'ubor bolalik davri Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi Qilichli qishlog'ida o'tgan.**

# TAQDIRIGA SHUKRONALIK HISSI

## faoliyatida unga kuch-quvvat bag'ishladi

– Esimda, – deydi Ixlim Mavlonova. – otam Eshnazar Norboboyev Janubiy kon boshqarmasida haydovchi, onam Ufagul Norboboyeva esa uy bekasi edi. Oilamizda 6 qiz, 6 o'g'il farzand, otam va onam bilan o'n to'rt kishi edik. Otam ham, onam ham bo'sh vaqtlarida kitob va gazetalarni mutolaa qilishga qiziqardi. Xonadonimizda shifokorlik kasbiga qiziqqanlar yo'q edi. Mening nimagadir shu kasbga mehrim tushgandi. Maktabni tugatgan yilim, otam Toshkentdagi Respublika tibbiyot bilim yurtiga boshlab bordi. Omadni qarang, o'sha yili bilim yurti talabasi bo'ldim.

Bilim yurtini tamomlagach, hayot uni Chori akaga ro'para qildi. Bir-biriga mehri tushdi. Eshnazar bobo va Ufagul momo yaxshi niyatlar bilan bu yoshlarga oq fotiha berishdi.

Bugun Chori aka va Ixlim opa uch o'g'il va bir qizni voyaga yetkazishib, kasb-korli va uyli-joyli qilishdi.

Chori aka "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasi "Nurobod" hududiy boshqarmasida haydovchi, Ixlim opa 4-Tibbiy-sanitariya qismining oliy toifali laboranti.

– Tibbiyot laborantligi sharafli kasb. Buni yurakdan, qalbdan anglagan, bor mehrini shu sohaga bera olgan odam chinakam o'rta tibbiyot xodimi bo'la oladi. Chunki uning birgina xatosi, turli-tuman ko'ngilsiz xatolar kelib chiqishiga



sabab bo'ladi. Shifokor biz o'tkazgan tahlillarga asoslanib, bemorlarga tashxis qo'yadi, muolaja amaliyotlarini olib boradi. Bunday mas'uliyatni qalbdan his qilib, bor mehri, kuchi, idroki, bilimini shu sohaga bag'ishlamasa, odamlar koriga yaramasa, unda befoyda. Menga buni haydovchilik ortidan o'n ikki nafar farzandni voyaga yetkazgan otam o'rgatgan, – deydi Ixlim opa.

U ota va ustozlari o'gitiga amal qilib kam bo'lmadi. O'ttiz yetti yildirki, o'rta tibbiyot xodimi bo'lib ishlayapti. Janubiy kon boshqarmasi, "Navoiyuran" davlat korxonasi va "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasi tizimidagi bo'linmalarda mehnat qilayotgan har bir xodim uning uchun qarindoshdek yaqin insonlarga aylangan.

– Ixlim opa o'z onamdek bo'lib qolgan, - deydi 4-Tibbiy-sanitariya qismi laboranti Nayzangul Sarimsoqova. - Bilmaganlarimni yotig'i bilan tushuntiradi. Men singari shogirdlaridan yordamini ayamaydi. Opamiz mehnat faoliyati davomida qanchadan-qancha o'rta tibbiyot xodimlariga ustozlik qildi.

2020-yilda Ixlim Mavlonova hayotida muhim voqea sodir bo'ldi. U kombinat rahbariyati tomonidan 3-darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoniga munosib topildi. Bu, opaning ko'p yillik halol mehnatlari samarasi.

Ixlim Mavlonovaning oilasi Nurobodda namunalilardan sanaladi. Katta farzandi Mavlon "Navoiyuran" davlat korxonasining "Sobirsoy" geotexnolgik konida faoliyat yuritmoqda. Opaxon umr yo'ldoshi Chori Mavlonov bilan mehnatidan baxt topishib, sevimli farzandlar, kuyovu kelinlar, nevaralar og'ushida quvonchli hayot kechirishayapti.

– Bularning barchasi uchun mustaqil davlatimiz, qadrdon korxonamizdan behad minnatdorman, – deydi shukronalik bilan Ixlim opa.

**Azamat ZARIPOV.**

# ФИЗИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ – ОСНОВА ЗДОРОВЬЯ

**Физическое здоровье - состояние, при котором у человека имеет место совершенство саморегуляции функций организма, гармония физиологических процессов и максимальная адаптация к различным факторам внешней среды. Физическая активность определяется как какое-либо телодвижение, производимое скелетными мышцами и требующее затрат энергии.**

Недостаток движения снижает его резервы и является причиной многих заболеваний: избыточной массы тела, болезней сердечно-сосудистой системы, артериальной гипертонии и депрессии. В XXI веке средняя физическая нагрузка городского жителя уменьшилась почти в 50 раз по сравнению с предыдущими столетиями. Большинство людей в настоящее время ведет малоподвижный, сидячий образ жизни, из-за чего у них развивается гиподинамия – снижение двигательной активности и силы мышечных сокращений. Чтобы избежать развития гиподинамии и снизить риск преждевременной смерти, а также риск развития ишемической болезни сердца и инсульта, артериальной гипертонии, сахарного диабета 2 типа и депрессии, необходимо активно двигаться, например, прогулки на свежем воздухе не менее 10 часов в неделю, в том числе 2,5 часа – в режиме быстрой ходьбы. Гимнастика, физические упражнения способствуют повышению защитных сил организма и предупреждают преждевременное старение. Они должны быть простыми, безопасными и отвечать запросам каждого конкретного человека в соответствии с его возрастом, силами и состоянием здоровья. Самыми простыми, наиболее естественными и безопасными упражнениями являются ходьба, а затем и бег трусцой. Только рекомендуется начинать заниматься ими понемногу, не спеша, с того, что по силам, постепенно увеличивая нагрузку. Для начала важна не скорость, важно пройденное расстояние и время, посвящённое ходьбе. Чтобы эффект от занятий физической культурой был стойким, необходимо их сделать своим образом жизни. Существует, так сказать, золотой стандарт принципов физических нагрузок, включающий утреннюю гимнастику около 20 – 30 мин, вечерние пешие прогулки до 3 – 4 км, фитнес (спорт клуб), плавание -2-3 раза в неделю. Если систематично выполнять «золотой стандарт» - здоровье и молодость вам обеспечены!

По идее, систему тренировок должен разрабатывать спортивный врач, учитывая особенности организма, подбирать тот характер упражнений, а также объем и интенсивность нагрузки, которые подходят именно вам. Занимаясь бессистемно, вы подвергаетесь риску не просто не достигнуть желаемого эффекта, а даже, напротив, навредить своему здоровью. Прежде чем приступить к выполнению любого упражнения, нужно реально оценить свои силы. Если тренером предлагается упражнение, которое вам кажется слишком сложным, и вы не уверены в правильности его выполнения, лучше от него отказаться или попробовать упрощенный вариант. Если нагрузка от упражнения, несмотря на всю правильность выполнения, кажется вам чрезмерной или вызывает болевые ощущения, то от него также следует отказаться и выбрать что-то полегче. Кроме того, следует отказаться от выполнения любых упражнений, если у вас накануне поднялась температура выше 37 °С.

И ещё, в норме величина пульса в положении лежа должна отличаться от величины пульса сразу после того, как вы встали, не более чем на 12–24 ударов в минуту. Наблюдая этот показатель каждый день, сможете оценить, насколько эффективны тренировки. Если разница будет постепенно уменьшаться, а затем стабилизируется на более низких значениях, чем до начала тренировок, значит, вы в хорошей форме. Если же в какой-то из дней вы отметите увеличение показателя, то необходимо дать себе небольшую передышку, а, если это не поможет, то пересмотреть систему тренировок.

Минимальный уровень физической активности достигается при регулярных физических занятиях, при которых сжигается не менее 150 ккал в день, что соответствует либо 15 минутам подъема по лестнице, либо 15 минутам бега, либо 20 минутам плавания, либо 30 минутам ходьбы пешком или танцев и т.д.

Любите себя и уважайте свое тело, будьте здоровы. И помните в здоровом теле – здоровый дух!

**Аида ЖОЛДАСОВА, врач гастроэнтеролог.**
**Гулмира ТУХТАЕВА, врач кардиолог дневного стационара взрослой поликлиники.**

■ Kadrlar tayyorlash

**Ustoz va murabbiy! Barchamiz yoshimiz va kasbimizdan qat'iy nazar, bu so'zlarni eshitganimizda ko'nglimizdan faqat iliq fikrlaru, yorqin xotiralar o'tadi. Hayotda biror yutuqqa erishsak yoki kasbimizdan e'zoz topsak, albatta bizning shu darajaga yetishimizda o'zining mehnati va shijoatini ayamagan ustozlarimizdan minnatdor bo'lamiz.**



# USTOZLIK SHARAFI

Albatta, har birimiz qay bir sohada mehnat qilmaylik, hayot so'qmoqlaridan odimlab borishimizda ustozlik qilgan insonlarning yordami bilan kasbimizda kamol topamiz. Markaziy kon boshqarmasining ko'pming kishilik mehnat jamoasi rejalarni o'z vaqtida bajarayotganligi ham ustozlar xizmatining samarasidir. Kon va zavodlarda, ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida ustozlarning mehnat faoliyatini o'rganib, o'z ishining ustasi bo'lishga intilayotgan yoshlar mamlakatimiz iqtisodiyotining yuksalishiga hissa qo'shishyapti.

Kon boshqarmasi bo'linmalarida ishlayotgan ishchi-texnik xodimlarning malakasini oshirish va sohalar bo'yicha yangi innovatsion g'oyalar asosida kasbga qayta tayyorlash uchun O'quv markazi faoliyat ko'rsatadi. Kon-metallurgiya sanoatining jadal rivojlanishi bilan malakali mutaxassislarga bo'lgan talab ham ortib boradi. Ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida ishchi- xodimlarning malaka va ish tajribalarini oshirish, ularni qayta tayyorlash maqsadida tashkil etilgan O'quv markazi ellik yildan ortiq vaqt mobaynida Markaziy hamda Shimoliy kon boshqarmalari, Zarafshon qurilish boshqarmasi va boshqa sanoat korxonalari uchun kon ishlari, temir yo'l transporti, elektrotexnika, chilangarlik ishlari, avtomobil xo'jaligi va boshqa turdagi yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashga xizmat qilib kelmoqda.

- Zamonaviy ta'limni innovatsion o'zgarishlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bugun ustozlarimiz darsini o'tishda turli interaktiv usullardan foydalanishmoqda. Ekskavator, buldozer, burg'ilash mashinistlari, og'ir yuk tashuvchi avtomobillar haydovchisi, portlatuvchi, yer osti kon ishlari bo'yicha elektrovoz mashinisti, lahimchilar, gidrometallurgiya zavodlari uchun tegirmon mashinistlari, apparatchilar, elektromontyorlar, sozlovchi chilangarlik kasblari bo'yicha mashg'ulotlar oddiy va ravon tilda tushuntirilib, nazariyaning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligi ta'minlanmoqda, – deydi O'quv markazi direktori Umid Saydullayev.

O'quv markazida 204 ta maxsus hamda 132 ta malaka oshirish kurslar tashkil etilgan. Joriy yilning sentabr oyiga qadar 4324 nafar ishchi-xodimlar kasbiy ta'lim olgan bo'lib, shulardan 596 nafari qayta tayyorlanib, 408 nafari ikkinchi mutaxassislikni egalladi, 3206 nafari malakasini oshirdi. Bundan tashqari O'quv markazi tomonidan 432 nafar xodim Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot instituti, O'rta maxsus tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish markazi, Navoiy viloyati davlat arxivi, Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti, Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti kabi qayta tayyorlash markazlarida o'z malakalarini oshirib qaytishdi.

- Harbiy xizmatdan so'ng Toshkent avtomobil yo'llari institutida "Avtomobil transportidan foydalanish" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olib, oliy ma'lumotli muhandis diplomi sohibi bo'ldim. Ilk mehnat faoliyatimni yosh mutaxassis sifatida 1987-yilda Qiziltepa tumani avtokorxonalarida oddiy chilangarlikdan boshlab, yetakchi muhandis darajasigacha bo'lgan lavozimlarda ishlab keldim. O'tgan asrning to'qsoninchi yillarida "Muruntov" koniga yangi, og'ir yuk ko'taruvchi avtomobillar keltirildi. Ushbu kon texnikalaridan samarali foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish uchun malakali kadrlarga ehtiyoj oshdi. 1992-yildan Markaziy kon boshqarmasi Avtotransport boshqarmasida faoliyat ko'rsatyapman. Jamoam bilan hamkorlik va hamjihatlikda ishlab, muammolarning texnik yechimini aniqlab, uni bartaraf etish bo'yicha takliflar berdim. Kon avtomobillari shinalarini almashtirish va ta'mirlash uchastkasida usta, keyinchalik katta usta, uchastka boshlig'i, texnik bo'limida yetakchi muhandis lavozimlarida ishladim. 2018-yildan soha mutaxassisi sifatida kon boshqarmasi avtokorxonalarida ishlatilayotgan yangi texnikalarni boshqarishda innovatsion g'oyalarni amalga oshirish maqsadida O'quv markaziga ishga taklif etildim va ayni vaqtda ishchi-texnik xodimlarni qayta tayyorlash va malaka toifalarini oshirishga hissa qo'shib kelmoqdaman, - deydi O'quv markazi ishlab chiqarish ta'limi ustasi Sobir Rajabov.

200 nafardan ortiq haydovchilarga yo'lda harakatlanish qoidalarini o'rgatib kelayotgan Sobir Rahmatovich o'ziga va shogirdlariga talabchan. Tinglovchilarga kasbiy mahoratlarini muttasil oshirib borish kerakligini ta'kidlab keladi. Ayniqsa, kon pasporti bilan ishlab, yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kerakligini uqtiradi.

O'quv markazida barcha soha vakillari uchun texnik adabiyotlar kutubxonasi bor. Kutubxonada ishlab chiqarish sohasiga oid 24 ming 459 nusxa kitob, o'quv qo'llanma hamda adabiyotlar elektron holga keltirilgan.

O'quv markazida auditoriyalar maxsus jihozlangan bo'lib, o'quv va tarbiyaviy ishlarni zamon talabi darajasida olib borishga imkon beradi. Ustozlarning ta'limi tinglovchilarga malakali mutaxassis bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etyapti.

**Nafosat ZIYOYEVA.**

# MALAKA OSHIRISH – ISH UNUMDORLIGI OMILI

**Navoiy kon-metallurgiya kombinatida oltin tarkibli ma'dan qazib olish jarayonida burg'ilash uskunalari, ekskavatorlar, kon avtoag'dargichlari va yo'l qurilish mashinalaridan keng foydalaniladi. Bu texnikalarni mahorat bilan boshqarish, ulardan to'g'ri foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish qoidalari va harakatlar tartibini bilishda haydovchilar, mashinistlar va ularning yordamchilarining tajribali va malakali bo'lishi talab etiladi.**




Yaqinda kombinat bo'linmalarida tog'-kon va transport texnikalarining samaradorligini oshirish, ulardan foydalanishda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga jalb qilingan ishchi-xodimlarning bilimi hamda kasbiy malakasini oshirish maqsadida o'quv kurslari tashkil etildi. Joriy yilning oxiriga qadar davom etadigan kurslarda mashg'ulotlar o'tish malakali nazariy ta'lim o'qituvchilari hamda ishlab chiqarish amaliyoti instruktori zimmasiga yuklatildi.

Ayni paytda Markaziy kon boshqarmasining O'quv markazida "Zeppelin Central Asia Machinery" kompaniyasi mutaxassislari tomonidan "CAT" avtoag'dargich haydovchilariga nazariy va maxsus jihozlangan o'quv texnikalarida amaliy darslar o'tilmoqda. O'quv jarayonlarida xodimlarga ishlarni xavfsiz bajarish usullarini o'quv dasturlariga muvofiq, nazariy bilim va ishlab chiqarish bo'yicha tashkil etish, ish vaqtida mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy amal qilish lozimligi tushuntirilmoqda.

Maxsus texnika vositalari haydovchilari o'rtasida bunday o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish nafaqat ish unumdorligini oshirish, balki baxtsiz hodisalarning oldini olishda ham ahamiyatlidir.

**"NKMK" AJ matbuot xizmati.**

■ Xabar

# GEOLOGIYA-QIDIRUV ZAXIRALARNI O'STIRISHDA MUHIM BOSQICH

**"Navoiyuran" davlat korxonasining asosiy faoliyat turlaridan biri geologiya-qidiruv ishlarini olib borish orqali yangi istiqbolli uran konlarini izlab topish va zaxiralarni oshirishdan iborat.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 297-sonli qaroriga muvofiq 2024-yil uchun "Uran mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to'ldirish davlat dasturi" tasdiqlangan. Geologiya-qidiruv ishlari orqali Bukantog' va Tomditog' tog'larining yon bag'irlaridagi hududlarni o'rganish, shuningdek, bashorat-tematik loyihalar doirasida olib boriladigan ishlar yangi istiqbolli maydonlarni aniqlashga qaratilgan.

Korxona tasarrufidagi "Uran va noyob metallar geologiyasi" ilmiy-ishlab chiqarish markazi va uning "Nurota", "Bukantau", "Zirabuloq" geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi va Geologiya-qidiruv partiyalariga ushbu vazifa yuklatilgan. Joriy yilda "Bukantau" GQE tomonidan Uchquduq tumanida joylashgan Uchquduq, Ziyokon, Mingboy, Maylisay, Tomdi tumanida joylashgan Qizilqoq, Auminza, Toshqo'ra, Mullali, Nurafshon, Jasaga va Oqberdi dala maydonlarida burg'ilash ishlari amalga oshirilmoqda.




Natijada GQEda bashorat resurslari va uran zaxiralarini o'stirish rejalashtirilgan. Shuningdek, 3 ta yangi maydonda geologiya-qidiruv ishlarni olib borish ko'zda tutilgan. Ayni paytda ekspeditsiyada 10 ta burg'ilash qurilmalari mavjud. Ular yordamida 2023-yilda 203 ming pogon metr burg'ilash ishlari bajarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichni joriy yil yakunigacha 270 ming pogon metrga yetkazish rejalashtirilgan.

Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi muhandis-texnik xodimlari, geolog va burg'ilovchilari ushbu vazifani o'z muddatida amalga oshirish uchun sidqidildan mehnat qilishmoqda.

**"Navoiyuran" DK axborot xizmati.**

■ Tibbiyot

# E'TIBORGA JAVOBAN

**Mamlakatimizda aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Tibbiy-sanitariya qismimiz shifokorlari asosiy e'tiborlarini onalik va bolalikni muhofaza qilish, "Zafarobod" kon boshqarmasi, "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasi ishchi-xodimlari hamda nafaqadagilarning sog'lom va munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratmoqdalar. Kasbimiz fidoyilik, aniq fikr va ulkan qalbni talab qiladi. Ayni paytda "Zafarobod" TSQda 208 nafar xodimlar, shu jumladan, 32 nafar shifokor, 118 nafar hamshiralar faoliyat ko'rsatyapti.**

Tibbiy-sanitariya qismi poliklinikasi bir smenada 150 ta tashrifga xizmat ko'rsatmoqda. Bemorlar oltmish bir o'ringa ega ichki, yuqumli kasalliklar, jarrohlik, akusher va ginekologiya, bolalar bo'limlarida davolanmoqdalar. Shuningdek, qism tarkibida fizioterapiya, sanitariya-epidemiologiya, tez tibbiy yordam, klinik-diagnostik laboratoriya tadqiqotlari, rentgen-diagnostika, bo'limlari, kon boshqarmasi bo'linmalaridagi 10 ta feldsherlik sog'liqni saqlash tibbiy punkti, oshxona, kir yuvish xonasi, dorixona mavjud.

Joriy yil oktabr oyi holatida tibbiy xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 7 ming 665 nafar kishini tashkil qilyapti. Yil davomida "Navoiyuran" davlat korxonasi hamda "NKMK jamg'armasi"davlat muassasasi ishchi-xodimlari, tug'ruq yoshidagi xotin-qizlar davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, aniqlangan kasalliklari bo'yicha nazoratga olinib, sog'lomlashtirilmoqda. Yil boshidan buyon yo'l transport hodisasi oqibatida jarohatlangan 58 nafar bemorlarga statsionar sharoitda malakali tibbiy xizmat ko'rsatildi. Kon boshqarmasi bo'linmalaridagi feldsherlik tibbiy punktlarida ishchi-xodimlar sog'ligi doimiy nazoratda bo'lib, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilyapti.

"Zafarobod" hududiy boshqarmasi rahbariyati tomonidan Tibbiy-sanitariya qismining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, binolarini ta'mirlash va rekonstrutsiya qilishga e'tibor berilmoqda. Zero, yaxshi tibbiy yordam odamlarning turmush darajasini yaxshilashning asosiy shartlaridan biridir. O'tgan yili poliklinika to'liq ta'mirlandi. Bemorlar va xodimlar uchun qulay sharoitlar yaratilib, zamonaviy kompyuter va mebellar bilan jihozlandi. Jamg'arma rahbariyatining sa'y-harakatlari va "Navoiyuran" DK homiyligida 414 million so'mdan ortiq mablag' evaziga exoensefalograf, ko'z kasalliklarini aniqlash uchun eng so'nggi rusumdagi zamonaviy tonometr, oftalmoskop apparati, EKG apparatlari, immunoferment analizatori olindi. Dorixona avtoklav, quritish uskunasi bilan ta'minlandi. Bu yil 237 million so'mga zamonaviy tibbiy uskunalar xarid qilindi.

Yaqinda bir milliard bir yuz ellik million so'mga zamonaviy reanimobil tez yordam mashinasi xarid qilinadi. Yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, xalqimizga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshiramiz.

**Ilhomiddin PIRMATOV,**
**"Zafarobod" Tibbiy-sanitariya qismi boshlig'i.**

# METABOLIK SINDROMGA E'TIBORSIZ BO'LMANG

**So'nggi yillarda metabolik sindrom haqida tez-tez gapirilmoqda. Negadir ko'pchilik bu jiddiy kasallikka urf bo'lib qolgan tashhis deb qarab, yetarli darajada e'tibor berishmaydi. Vaholanki, metabolik sindromi ateroslekroz, infarkt, insult, buyrak yetishmovchiligi, saraton, qandli diabit kabi kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi bilan xavflidir.**

Bu muammolarning oldini olish mumkin. Metabolik sindrom ortiqcha vazn, qonda xolesterin miqdorining oshishi, gipertoniya, hujayralarning insulin garmoniga sezuvchanligining pasayishi – bu qonda glukoza darajasining oshishiga va 2-toifa diabit rivojlanishiga olib keladi, singari belgilarda namoyon bo'ladi. O'zida ortiqcha vazn, qon bosimining ko'tarilishi belgilarini sezgan kishi darhol qand darajasi va xolesterin uchun qon tahlillari topshirishi, endokrinolog va kardiolog vrachlarga murojaat qilishi zarur. Biokimyoviy ko'rsatkichlar me'yorda bo'lsa ham har olti oyda tibbiy ko'rikdan o'tish, qon bosimi hamda tarkibini tekshirib turish maqsadga muvofiqdir.

Metabolik buzilishlar diabitning belgilari va aterosklerogik qon-tomir shikastlanishidan ancha ilgari shakllanadi. Pologik jarayon ko'pincha yoshlikda boshlanib, ayniqsa, kamharakat turmush tarzi, yuqori kaloriyali ovqatlarni tanovul qilish, ortiqcha vazn hollarida rivojlanib boradi.

Bu sindrom nafaqat keksalar, balki 20-35 yoshlarda ham tashxislanadi. Ayollarda homiladorlik va tug'ish metabolizmning jiddiy sinovidir. Tug'uruqdan so'ng ayollarda vazn oshishi bu tabiiy jarayon emas, balki ularda pereferik neyroendokrin sindrom kasalligi rivojlana boshlaganidan darak beradi. Aslida bu metabolik sindromning alohida holati. Agarda homiladorlik paytida ayollarning vazni o'n ikki kilogramm va undan ko'proqqa oshsa hamda bu jarayon tug'uruqdan so'ng ham davom etsa, zudlik bilan ginekolog-endokrinologga murojaat qilib, zarur maslahatlar olish talab etiladi. Shifokor metabolik va endokrin jarayonlarni tartibga solishda tibbiy yordam ko'rsatadi. Faol tarzda semira boshlagan erkaklar ham shifokor nazoratidan o'tishlari lozim.

**Baxitgul UTEMURATOVA,**
**TSB poliklinikasi sex vrachi.**

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

**Tahririyat manzili:** 210100. Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy, "NKMK" AJ boshqarmasi
**Telefonlar:** Muharrir: 79 227-74-64. Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Azamat ZARIPOV**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 12100 nusxada chop etildi. Buyurtma № 598. 2024-yil 13-oktabr 17:00 da chop etishga topshirildi.